

MILLIY AXBOROT RESURLARI BILAN ISHLASH VA ULARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Azamova Shahzodaxon

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Aldashev Ilhomjon

*Farg'ona davlat universiteti axborot
kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy axborot resurslari va ularning jamiyatda tutgan o'rni, ularning vazifalari hamda O'zbekistondagi milliy axborot resurslari va ularning turlari haqida

Kalit so'zlar: axborotlashtirish jarayoni, axborot tizimi, resurs tushunchasi, milliy axborot resurslari, ZiyaNet axborot ta'lim tarmog'i, bo'limlari.

Bilamizki, bugungi kunda kompyuter, axborotlashtirish, raqamli axborot degan so'z va jumalarga juda ko'p duch kelamiz. Axborotlar va Kompyuter sohasiga oid bilimlar, jarayonlar bizning hayotimizni qamrab olmoqda. Shunday ekan bugungi kunning talabi bo'lgan kompyuter sohasiga oid bilimlarni, bu sohaga daxldor atamalar va ularning izohini, mazmun-mohiyatini biz qay darajada bilamiz? Avvalo, biz hozirgi zamonning hisoblangan "axborotlashtirish" so'zining tub mohiyatini anglab olishimiz zarur.

Axborotlashtirish jarayoni deganda inson faoliyatining muhim yo'nalishlarida olingan bilimlardan samarali foydalanish uchun ko'rilgan kompleks (aloqa) chora-tadbirlar tushuniladi. Zamonaviy va samarali yechimlar topish uchun ko'plab, struktura jihatidan murakkab axborot tizimi yaratilmoqda, natijada, axborotlashtirish jarayonida ishtirok etuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu jamiyat va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'plab mablag'larini shu sohaga jalb qilishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida insonlarni axborot resurslaridan ratsional foydalanish yo'llarini qidirishga majbur qilmoqda. Zamonaviy sharoitida yangi axborot oqimi qanchalik tez ko'paysa, shu bilan birga ularning eskirish muddatlari ham tezlashmoqda, bu o'z navbatida, axborot tanlash, unga erishish qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda.

Jamiyatni axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

Milliy axborot resurslari bilan ishlash, axborot va bilimlarni boshqarish, saqlash va tarqatish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar quyidagi asosiy elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Axborot resurslarini aniqlash: milliy axborot resurslari, masalan, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa axborot tashkilotlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash va ularning ro'yxatini tuzish;
2. Saqlash va boshqarish: axborotni saqlash uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. Bu, misol uchun, raqamli formatga o'tkazish yoki bulutli xizmatlardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin;
3. Axborotni qidirish va olish: foydalanuvchilar uchun axborotni qidirish tizimlarini yaratish va ularning foydalanilishini qulaylashtirish. Bu onlayn kataloglar yoki ma'lumot bazalari orqali amalga oshirilishi mumkin.
4. Ma'lumotlarni tahlil qilish: milliy axborot resurslaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, yangi bilimlarni hosil qilish;
5. Ta'lim va trening: foydalanuvchilarni milliy axborot resurslari bilan ishlash bo'yicha ta'lim berish. Bu seminarlar, trening dasturlari yoki onlayn kurslar orqali amalga oshirilishi mumkin;
6. Hamkorlik va aloqalar: boshqa davlat yoki xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash orqali milliy axborot resurslarini rivojlantirish;
7. Yana bir muhim jihat – qonuniylik: axborotni ishlatishda mualliflik huquqi va boshqa qonunlarga rioya qilish zarurati;

Milliy axborot resurslarini samarali boshqarish mamlakatning madaniyati, ta'limi hamda iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda, milliy axborot resurslari bilan ishlash bo'yicha bir nechta qo'llanma ham yo'q emas. Ular bir necha bosqichga bo'linadi:

a) 1-bosqich – resurlarni aniqlash: milliy kutubxonalar va arxivlar, hukumat agentliklari, universitetlar va tadqiqot muassasalari, non-profit tashkilotlar, matbuot organlari;

b) 2-bosqich – kirish usullarini o'rganish: onlayn kataloglar va ma'lumotlar bazalari, jismoniy arxivlar va kutubxonalar, elektron xizmatlar, masalan, raqamlashtirilgan hujjatlar va ovozli yoki video arxivlar;

c) 3-bosqich - mavjudlik va kirish cheklovlarini tekshirish: resurslar mavjudligiga ishonch hosil qiling, har qanday kirish cheklovlari, jumladan, mualliflik huquqi himoyasi yoki shaxsiy ma'lumotlarga e'tibor bering;

d) 4-bosqich – kerakli ma'lumotlarni tekshirish: ma'lumotlarning tegishliligi, ishonchliligi va dolzarbligini baholang, muallifning ishonchliligi va ma'lumotlar manbaini tekshiring;

e) 5-bosqich – ma'lumotlarni yig'ish va tashkil etish: tegishli ma'lumotlarni yig'ing, misol uchun, hujjatlar, fotosuratlar;

f) **6-bosqich** – ma'lumotlardan foydalanish: ma'lumotlarni tadqiqot, tahlil yoki taqdimot uchun foydalaning, tegishli joylarda mualliflik huquqiga rioya qiling va manbalarni to'g'ri keltiring.

Qolaversa, axborot resurslari moddiy tashuvchi vositalardan qayd etilgan va jamiyat foydalanishi uchun mo'ljallangan barcha bilimlar demakdir. Jumladan, axborot resurslarini boshqarish deganda bir qancha tushunchalar anglanadi:

a) har bir darajada va boshqarish funksiyasi doirasida axborotga bo'lgan ehtiyojlarni baholash;

b) iqtisodiy obyektning hujjat aylanishini o'rganish, uni optimallashtirish, hujjatlar turi va shakllarini standartlash, axborot va ma'lumotlarni to'plash;

d) ma'lumotlar turlari nomunosibligini yengib o'tish;

e) ma'lumotlarni boshqarish tizimini yaratish

Jamiyatning axborot resurslari boshqa material resurslari kabi strategik ahamiyatga egadir. Ammo axborot resurslari va boshqa turdagi resurslar o'rtasida juda muhim farq mavjud: axborot resurslarida boshqa har qanday resurs foydalanilgandan keyin yo'qoladi, biroq axborot resurslari esa aksincha, ya'ni foydalanganingiz sari ortib boradi, kamaymaydi. Undan ko'p marta foydalanish, cheksiz marta nusxa ko'chirish mumkin. Axborot resurslarini klassifikatsiya qilishga qanchalik urinmang, bu klassifikatsiya to'liq bo'la olmaydi. Klassifikatsiya asosiga quyidagilarni qo'yish mumkin:

a) tarmoqlar prinsipi (fan, sanoat, ijtimoiy soha va hokazo asosida)

b) taqdim etilish shakli bo'yicha (axborot tashuvchi turi, formallashtirilganlik darajasi, qo'shimcha izohlanganligi va hokazolar) va boshqalar. Har bir sinf bo'yicha yana qo'shimcha ichki tiplashtirishni bajarish mumkin. Masalan, Internet resurslarini vazifasi va taqdim etilish shakli bo'yicha (servis axboroti, bibliografik axborot, telekonferensiyalar materiallari, dasturiy ta'minot, video va hokazo turlarga bo'linishi mumkin).

Milliy axborot resurslari axborot resurslari sohasidagi eng yirik kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha XX asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo'lib, rivojlangan mamlakatlardagi axborot massasi, axborotni uzatish va qayta ishlash vositalarining rivojlanish darajasi ushbu ko'rsatkich bilan o'lchanadigan bo'ldi.

Axborot iste'molchilari jismoniy shaxslar, tashkilotlar, hukumat organlari va hokazolardir. Axborot xizmatlari axborot bozoridagi alohida tovar turi hisoblanadi. Masalan, kutubxona xizmatchilari tomonidan mijozlar buyurtmasi bo'yicha aniq mavzudagi adabiyot yoki boshqa turdagi materialni to'plash kabi xizmatlar. Axborot xizmatlarini faqat kutubxonalargina ko'rsatmaydilar, ko'pgina davlatlarda turli bilim sohalari bo'yicha ilmiy-texnikaviy axborotlarni qayta ishlovchi institutlar mavjud bo'lib, to'plangan ma'lumotlar bo'yicha obzorlar, referatlar, ma'lumotnomalar tayyorlaydilar. Biznes sohasidagi axborot xizmatlariga ma'lum mavzu bo'yicha

axborotlarni taqdim etish, aniq masala yuzasidan maslahat berish va boshqalar kiradi. Kommunikatsiya sohasida aloqa operatorlari, internet provayderlar xizmat ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda biror axborot va ma'lumotlarga ega bo'lish juda qulay va oson. Buning sababi esa hozirda ko'plab axborot resurslari tizimlari yaratilganligidir. Axborot resurslari tizimi bizga biror-bir axborotni tez va qulay usulda olishga xizmat qiladi. Biz uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ushbu resurslar orqali saqlanadi hamda ehtiyoj tug'ilgan vaqtda siz bu resurslardan bimalol foydalanish imkoniga ega bo'lasiz.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. (<https://web.archive.org/web/20171216201529/http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/ziyonet/about>) , 2017-12-16da asl nusxadan (<http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/ziyonet/about>) arxivlandi, qaraldi: 2017-116
2. Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.
3. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL*, 3(10), 97-100.
4. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов, Н. Э., Ахмедов, Б. А., & Рахманова, Г. С. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. *Молодой ученый*, 22(312), 105-107.
5. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов, Б. А. (2020). Инновацион "Klaster mobile" иловаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 140- 145.
6. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель- программа для преподавателей образовательных учреждений). *Universum: технические науки*, 12 (81), 11-14.